

FARG'ONA VODIYSI YALLACHILIK SAN'ATI

Sultanbek Mannopov

O'zbekiston xalq artisti, Professor

Electron pochta: @sultonali.mannopov

Tel raqami: +99890-534-94-71

Anvarova Gulhayoxon Umidjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti magistranti

Electron pochta: gulhayoxonanvarova@gmail.com

Tel raqami: +99890-272-22-67

ORCID: 0009-0008-4488-5847

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati, uning kelib chiqish tarixiy ildizlari, ijro uslubi, poetik matni va musiqiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yallalarning xalq og'zaki ijodi sifatidagi o'rni, ularning bayram marosimlari va an'anaviy san'atdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ijrochilikda yallachilik san'ati davomiyligi, yoshlar orasida tarqalishi va madaniy identifikatsiyadagi o'rni ilmiy asosda o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Farg'ona, yallachilik san'ati, xalq og'zaki ijodi, folklor, milliy musiqiy meros, ijro uslubi, an'anaviy musiqalar, ritm, ohang, kuy, ashula, sahna madaniyati, milliy qadriyatlar, musiqa an'analari, uzviylik, rivojlanish, madaniy meros, ijodiy maktab, o'zbek xalq musiqasi.

Abstract. This article examines the Yalla singing art of the Fergana Valley, focusing on its historical origins, performance style, poetic structure, and musical characteristics. The research explores the role of Yalla as part of oral folk tradition, its function in festive ceremonies, and its significance within traditional culture. Additionally, the study analyzes the continuity of the Yalla singing tradition in contemporary performance, its popularity among younger generations, and its contribution to cultural identity.

Keywords: Fergana, Yalla art, folk music, oral tradition, folklore, national musical heritage, performance style, rhythm, melody, traditional singing, stage culture, cultural identity, musical traditions, continuity, development, artistic expression, creative school, Uzbek folk music.

Аннотация. В данной статье анализируется искусство исполнения яллы Ферганской долины, включая его исторические истоки, особенности исполнения, поэтический текст и музыкальные характеристики. В исследовании рассматривается роль яллы как части устного народного творчества, её функция в праздничных обрядах и значение в традиционной

(9th international scientific and practical conference)

культуре. Кроме того, изучается сохранение традиции яллы в современном исполнительстве, её распространение среди молодежи и роль в формировании культурной идентичности.

Ключевые слова: Фергана, искусство яллы, народная музыка, устное творчество, фольклор, национальное музыкальное наследие, исполнительский стиль, ритм, мелодия, традиционное пение, сценическая культура, культурная идентичность, музыкальные традиции, преемственность, развитие, художественное выражение, творческая школа, узбекская народная музыка.

Kirish

O‘zbek xalqining boy madaniy merosi ichida musiqiy folklor alohida o‘rin tutadi. Asrlar davomida shakllanib, avlodan-avlodga og‘zaki an‘ana orqali yetib kelgan qo‘shiq janrlari ichida yalla o‘zining serharakatligi, quvnoq ruhi va jamoaviy ijro an‘analari bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, yalla janri qadimgi turkiy marosim qo‘shiqlaridan rivojlanib, keyinchalik xalq bayramlari, oshiq-mashuqona lirik obrazlar va ommaviy qo‘shiqlar shaklida keng tarqalgan (A. Rajabov, 1983).

O‘zbek xalqining boy madaniy merosi ichida musiqiy folklor alohida ahamiyat kasb etadi. Avloddan avlodga og‘zaki ijod an‘anasi orqali yetib kelgan ushbu san‘at turi xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, hayot tarzi va badiiy tafakkurini aks ettiradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:

«Biz dunyoda madaniy merosning noyob namunalari saqlash va targ‘ib etish orqali xalqimizning asl o‘zligini mustahkamlashimiz lozim. Mazkur jarayonda xalqimizning -jumladan huquq, folklor, raqs-musiqa kabi an‘anaviy san‘ati, xususan, yalla kabi jamoaviy ijro shakllari muhim ahamiyat kasb etadi.»

Bugungi kunda yallachilik san‘ati o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi sifatida qayta tiklanib, festival va folklor ansambllari repertuaridan munosib o‘rin egallamoqda. Shu bois mazkur janrning tarixiy ildizlari, ijrochilik xususiyatlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy jihatdan o‘rganish milliy musiqashunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

¹O‘tmishda asosan xotin-qizlarning davralarida namoyish etilgan bu san‘at tufayli milliy musiqa xazinamiz ayollarning qalb qo‘riga yo‘g‘rilgan o‘ziga hos ohanglari bilan yanada boydi, o‘zbek shariyati sevgi mavzusi tarannumida nozik ibora va ramziy so‘zlar lug‘atiga ega bo‘ldi.

Ayni vaqtda, Farg‘ona vodiysi yallachilarining har biri alohida o‘zgacha tasirli aytim-raqslari va hofiz-bastakorlari yangi ijod cho‘qqilari sari ilhomlantirib

¹ Nasiba Turg'unova "Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati

kelmoqda. Buning natijasi o'laroq o'zbek musiqa san'atida yalla va qo'shiq, yalla va ashula, yalla va maqom janrlarining xususiyatlarini o'zida uyg'un mujassam etgan noyob aytim namunalari yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUHOKAMA

Azaldan o'zbek ayollari doira yoki dutor chertib o'zlarining ezgu istak va qalb tug'yonlari, xursandchiligi turmush zahmatlarini ohangga solib aytishni va raqs tushishni hush ko'rganlar. Xalqimizning ko'p asrlik madaniy hayoti davomida esa bu ish bilan maxsus shug'ullanuvchi ayol-san'atkor kasblari ham shakllangan bo'lib, ular buxorda – sozanda, Xorazmda – halfa, Farg'ona vodiysida esa yallachi nomlari bilan atalib kelinadi. Bu san'at ko'rinishlarining har biri o'ziga hos ohang – usullari, boy ijodkorlik va ijrochilik an'analari bilan o'zbek milliy musiqa madaniyatida alohida qadr qimmat kasb etadi.

O'zbek xalqining an'anaviy hayotini yurli urf -odat, marosim va an'analarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki xalqimizning ma'naviy olami, dunyoqarashi va asrlar davomida e'zozlanib kelinayotgan milliy qadr qiymatlari to'liq aksini topadi. Bunga, masalan, Farg'ona vodiysida qaror topgan ko'p asrlik oilaviy marosimlar misoldir.

Vohada uzoq o'tmishdan bugungi kungacha o'tkazib kelinayotgan beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi kabi oilaviy marosim va boshqa bayram tadbirlarida ayollarning, shu jumladan, yallachilarning ha faol ishtirok etib, ular tomonidan marosim ("yor-yor", "Kelin salom", "Hush keldingiz" va b.) aytimlarining kuylanishi hamda bu hol joylarda asriy an'ana bo'lib kelmoqda. Farg'ona viloyatining Quva, Qo'qon, Marg'ilon, Yozyovon va Toshloq tumanlarida ayollarning yallachilik san'ati davom etib, og'zaki tarzda ustoz-shogird an'analari orqali bugungi kunga qadar rivojlanib kelmoqda.

Yallachilik san'atining tarixiy kelib chiqish ildizlari va manbaalarini aniqlash maqsadida ijtimoiy madaniy tarixning ayrim lavhalariga nigoh tashlaymiz.

Uzoq o'tmish asori atiqalari, madaniy yodgorliklari va yozma manbaalardan ma'lum bo'ladiki, "eski turklarda ayollarning ijtimoiy va siyosiy mavqelari yuksak bir darajada bo'lgan". Ayniqsa ayol musiqachilarning jamiyatdagi alohida nufuzi e'tiborni o'ziga tortadi. Jumladan, olis o'tmishda uzun ko'ylak va libos kiygan, boshlariga esa ro'mol tortgan iffatli ayol musiqachilar san'atning yuksak timsoli, diniy marosimlarning o'ziga hos ramzi va turli topinish etiqodlarining sanamlari o'laroq e'zozlanganlar. Surxondaryo vohasidagi eramizdan avvalgi IV asrga oid Dalvarzintepa harobalaridan topilgan terrakota haykalchasida chang (arfa) chalayotgan sanam- sozanda qiyofasi, Afrosiyobning eng quyi madaniy qatlamlariga mansub chizgi va haykalchalarda o'sha davr musiqa istemolida bo'lgan ayrim cholg'ular qatorida ayol sozandalarning ham suratlari aks etganini ko'ramiz.



Ayritom frizidan lavha

Mumtoz adabiyot daholari- Nizomiy ganjaviy, Amir Husrav Dehlaviy hamda Alisher Navoiylar “Xamsa” qaxramonlaridan bo‘lgan Fitna va Dilorom ismli benazir ayol musiqachilarning badiiy simolarini yaratishda o‘z zamonalarining xushovoz hofiza va tengsiz sozandalari san’atlaridan ilhomlangan bo‘lsalar ham ajab emas.

Sohibqiron Amir Temur va uning vorislari saroylarida ayol san’atkorlarning faoliyat ko‘rsatishlari uchun qulay imkoniyatlar mavjud bo‘lgan. Manbaalarda keltirilishicha, musiqachilarning qadrini bilgan ulug‘ Sohibqiron saroyida erkak san’atkorlar bilan bir qatorda raqqosa, sozanda va honanda ayollar ham o‘z istedodlarini ko‘rsatishlariga izn berilgan.

Farg‘ona vodiysida mumtoz adabiyot va san’at turlari rivojlangan edi. Xususan Qo‘qon xonligida ayollarning musiqiy she‘riy istedodlari, aktyorlik va raqqosalik mahoratlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan. XVII-XIX asrning birinchi yarmida qo‘qon xonligida “Katta o‘yin”, “Kema o‘yin” kabi turkumli raqslar takomillashtirildi, “Yakka o‘yinlar uchun nihoyatda nafis va lirik musiqa hamda laparlar, o‘ynab ijro etiladigan yallalar ham vujudga keldi.

XIX asr oxiriga kelib ayollarning yallachilik faoliyati saroydan tashqarida, xalq orasida ham davom etgan edi. Shu tarzda tanilgan san’atkorlar orasida Masturabibi, Qari To‘qal, Aziza, Kirmaston, Norxon, Huvaydo Otin, Oyniso hofiz, Kumush bachcha ismli yallachilar bo‘lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysining Marg‘ilon, Qo‘qon, Namangan shaharlari hamda Quva, Oltinko‘l, Izbosgan, baliqchi, Chust, Uchqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on va Kosonsoy tumanlarida faoliyat ko‘rsatayotgan yallachilar o‘tmishdagi san’atkor salaflarning ijodiy me‘rosxo‘rlaridir.

(9th international scientific and practical conference)

Xususan, Quva tumani yallachilik ijodida asriy kuy ohanglar muqim saqlanib qolganligini ko‘ramiz. Ayniqsa, “Olmani otdim” (Do‘st, menga ishonma) nomi bilan vodiya mashxur yalla tuman ayollari orasida ham keng tarqalgan. Mazkur yalla 1939-yili Elena Romanovskaya tomonidan quyidagicha yozib olingan edi.

Олмани отдим



Ushbu yallaning shunga o‘xshash variantini 2012-yili Andijon viloyatining Oltinko‘l tumanida istiqomat qiluvchi yallachi Davlatxon Aslanovadan yozib olishgan.

Malumki, fiqh ilmi ulamolari yetishib chiqqan Marg‘ilon shahri ayni vaqtda jahonga mashxur atlasu do‘ppilari bilan ham mashxurdir. Yurtboshimizning: “Marg‘ilon deganda, betakror tabiati, bog‘-rog‘lari, kamalakdek serjilo atlaslari, o‘zligimiz ramziga aylanib ketgan rang-barang do‘ppilari bilan yeti iqlimga mashxur bo‘lgan go‘zal bir makon namoyon bo‘ladi”, deb aytgan so‘zlari bu zaminga berilgan yuksak baxodir. Xalqaro YUNESKO tashkiloti qarori bilan 2000-yil Burhoniddin Marg‘iloniyning 910 yillik tavalludi, hamda 2007-yil marg‘ilonning ikki ming yillik bayrami xalqaro miqyosda tantanali ravishda nishonlandi.

Marg‘ilon shahrida o‘zbek musiqasining barcha qatlamlari asrlar davomida rivojlanib keldi. Shahar ayollari orasida vodiya hos bo‘lgan qariyb barcha aytim namunalari keng tarqalgan. 1931 va 1934-yillari Yelena Romanovskaya va Hafiya Muhammedovalar tomonidan bu yerlarga uyushtirilgan ekspeditsiyalar shu davrning mashhur yallachilari – Zeboxon, Sanoatxon, Turg‘unoyxon va Marg‘ilonga Andijondan ko‘chib kelgan Lutfixonim Sarimsoqovalarning dutor jo‘rnavoziqligida aytgan qator lapar, yalla qo‘shiq va ashulalarini yozib olishgan.

Marg‘ilon shahrida hozirda “Kabutar” folklor-etnografik ansambli faoliyat yuritib kelmoqda. Ular qadimiy hunarmandchilik aytimlaridan “Do‘ppi”, “Atlas”, “Charx” va Qo‘qonga hos bo‘lgan yalla va laparlarni sahnaviy ko‘rinishlarda tomoshabinlarga habola etib kelmoqda.

Qo‘qon tumanida ham ayollarning yallachilik san‘ati an‘analari davom etib kelmoqda. To‘y marosimlari va ayollar bazmlarida yalla, lapar, ashula, ko‘shiq, “Yor-yor” va “Kelin salom”larni ijro etish muhim o‘rin tutadi. Qo‘qon to‘y marosimlarida ijro etib kelinayotgan “Yor-yor”ning kuy-ohanglari Namangan “yor-yor”iga qaraganda biroz jadalroq ijro etiladi.

Farg‘ona viloyatida yallachilik an‘analari ayniqsa Xurmatxon, Yodgorxon, Karomatxon, Bidonxon, Mukarramxonlar ijodida rivovlantirilgan edi. Ularning kenja avlod shogirdlari- Rahimaxon Mazohidova va Muhabbat Toshmatovalar Ustozlari yo‘lining munosib davomchilari bo‘ldilar. Ularning sayi harakatlari bilan 1981-yili “Omon yor” ansambli tashkil etilgan Bo‘lib hozirda bu ansambl “Qo‘qon yor-yori” nomi bilan faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, tumanda hunarmandchilik ayimlari faqatgina sahnaviy ko‘rinishlarda saqlanib qolmoqda.

Yallalar asosan sevgi-muhabbat va yengil hazil mavzularida bo‘lib barmoq vaznlim (ko‘proq 7-8 hijoli) band-naqorot shaklida to‘qilgan xalq she‘rlari asosida aytiladi. Yalla ijrosida shu shakl tuzilishiga muvofiq bir aytimchi (yakkaxon) va ko‘pchilik (ikki va undan ortiq jo‘rnavor ansambl) ishtirok etadi.

Yallachilik san‘atida mumtoz she‘riyat namunalari asosida ham aytimlar ijod qilinadi. Chunonchi , “Izladim” (Mahtumquli), “Muncha ham” (Muqimiy), “Kelmaydimu” (Chustiy), “Odamiy”, (Haziniy) kabi namunalar ashula jumlasini tashkil etadi.Uch goho olti hissali doira usullariga tayangan bu ashulalarda **aruz** vazinli she‘rlar vazmin holda aytiladi.

Jumladan “Odamiy” ashulasida shoir Haziniy ijodiga mansub ramali musammani mahzuf vaznidagi she‘r qo‘llangan.

Foilotun – foilotun – foilotun - foilun

Bo‘lmadi manga nasibang, izladim kuzdan sani,
Endi kestin qish, toparman toza navro‘zdan sani.

Ushbu bayt “D-miksolidiy” ladida birin – ketin ulanib kelgan ioniy (“d – e – fis”), eoliy (“e – fis – g”) va frigiya (“fis – g – a”) trixordlari hamda olti hissali vazmin ufar usuliga mushtarak etilgan.

Farg‘ona vodiysi yallachilik san‘ati XX asr davomida an‘anaviy va sahnaviy ko‘rinishlarida rivojlanganligi ko‘zga tashlanadi.O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, mohir raqqos Nasriddin Majidov va Zaki Dadaboyevlar 1960-yili Namangan shahridagi Gogol nomli Madaniyat uyi qoshida Shahar va qishloqlarda istiqomat qilayotgan yallachi ayollardan iborat xotin -qizlar ansamblini tuzishgan edi.Ansambl Nasriddin Majidov rahbarligida viloyatda o‘tkaziladigan xalq sayili va bayramlarida ishtirok etib, har-xil mavzudagi qadimiy qo‘shiq va yallalarni sahnaviy ko‘rinishlarda ommaga havola eta boshladi.

XULOSA

Farg‘ona yallachilik san‘ati o‘zbek xalq musiqiy merosining bebaho bo‘g‘ini bo‘lib, u asrlar davomida xalqning hayoti, dunyoqarashi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘lanib kelgan. Yalla janrining shakllanishi, ijro uslubi va ohang tuzilmasi mintaqaning madaniy-musiqiy an‘analari, tarixiy jarayonlari hamda ijodkorlar mahorati orqali boyib, takomillashib borgan.

(9th international scientific and practical conference)

Bugungi kunda yallachilik san'ati nafaqat folklor shaklida, balki zamonaviy sahna talqinlarida ham o'z o'rmini topmoqda. Uning professional ijrochilik darajasiga ko'tarilishi, o'quv dasturlariga kiritilishi va ilmiy tadqiq etilishi milliy musiqa merosini asrab-avaylash hamda uni kelajak avlodga yetkazish borasidagi muhim qadamlardandir. Yalla ijrochiligining o'ziga xos ritm, ohang va sahna harakati bilan uyg'unlashganligi ushbu janrni nafaqat musiqa sifatida, balki teatr-madaniy ifoda vositasi sifatida ham qadrlashga asos yaratadi. Shu ma'noda, Farg'ona yallachilik san'ati milliy identitetni aks ettiruvchi va xalq ijodiy tafakkurining yorqin namunasi sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev, A. *O'zbek xalq musiqasi tarixi*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot, 2015.
2. Jo'rayev, F. *Farg'ona–Toshkent musiqa maktabi an'analari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Matyoqubov, O. *O'zbeklar musiqasi: tarix, ijod va an'ana*. – Toshkent: San'at, 2020.
4. Qurbonov, R. *Yalla ijrochiligining uslubiy xususiyatlari*. – Farg'ona: Al-Farobiy nomidagi nashriyot, 2017.
5. Mirzayev, T. *O'zbek xalq og'zaki ijodi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
6. Karimova, N. "Farg'ona vodiysi xalq musiqiy merosi va uning o'ziga xosligi." // *Musiqa san'ati jurnali*, №3, 2022. – B. 45–52.
7. UNESCO Culture Sector. *Traditional Uzbek Music and Performance* (maqola). – Paris, 2021.
8. Ahmedov, M. *Folklor va milliy musiqa merosi*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.